

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA  
O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

SAMARQAND DAVLAT CHET TILLAR INSTITUTI

Tarjima nazariyasi va amaliyoti kafedrası

# REFERAT

Mavzu: BADIY TARJIMA VA UNDA TIL ME'YORINI  
SAQLASH

Done by: Norhodjayeva M.  
Checked by: Qo`ldoshev O`.

# Theme: BADIY TARJIMA VA UNDA TIL ME'YORINI SAQLASH

## Reja:

- 1: Badiiy tarjima va unda til me'yorini saqlash haqida
- 2: Badiy tarjimada me`yor tushunchasi
- 3: Tarjimada muqobil ekvivalent topish

«Kundalik aloqa vositasi bo'lgan tilga nisbatan badiiy adabiyot tili – deb yozadi A.V. Fyodorov,- bu so'z ustalari tomonidan qayta ishlangan tildir<sup>1</sup>.

«Badiiy asarni tarjima qilish uchun tilning lug'at boyligi, chunonchi sinonim va omonimlar, kasb-hunar atamaları, shevaga xos, eskirgan va vulgar so'zlar, erkalash va kichraytirish, qochiriq, maqol, matal va iboralarni hamda so'zlarning musiqiyligiyu, ohangdorligini, ko'p ma'noliligini, tilning talaffuz me'yorlarini, mubolag'a va kichraytirish xususiyatlari, hazil mutoyiba shakllarini bilish zarur. Badiiy tarjimani ilmiy tavsiflash shundan iboratki, bunda so'zni so'z bilan emas, balki ma'noni ma'no bilan, obrazni obraz bilan, yumorni-yumor bilan berish muhim ahamiyatga egadir. Badiiy tarjimaning boshqa turdagi tarjimalardan farqi shundaki, so'z, jumla yoki butun bir asarni to'g'ri o'girish kifoya emas. Bunda tarjimon ham san'atkor bo'lishi lozim<sup>2</sup>»

Me'yor tushunchasiga kelsak, ingliz va o'zbek adabiy tili va badiiy asarlarida me'yoriy ko'rinishlar, nutq jarayonida me'yorning buzilishi va ularni tuzatish yo'llari, ingliz va o'zbek tillarining hozirgi me'yoriy holati tilning madaniylik mezoni ekanligidir. Me'yor - jamiyat a'zolari tomonidan qabul qilingan, ma'qullangan va ularga tushunarli bo'lgan til birliklarining nutq jarayonida qo'llanish holati va imkoniyatidir.

Biz ushbu maqolada buyuk amerika adibi E. Hemingueyning “Alvido qurol” asari tarjimasida hamda boshqa bir ikki badiiy matnlar tarjimasida til me'yoriga amal qilinganlik yoki qilinmaganlik masalasi yuzasidan fikr yuritamiz. Amerika adibi E. Hemingueyning “Alvido qurol” asari tarjimasi haqida fikr yuritar ekanmiz misollarda ruscha variantlarni ham berib o'tishlikni ma'qul deb topdik, zero ushbu asar bilvosita, ya'ni rus tili orqali o'zbek tiliga tarjima qilingan.

Ma'lumki har qanday asardagi personajlarning tili, nutq madaniyati asar qahramonlarining obrazini, xarakterini o'zida aks ettiradi. Turli nutq vaziyatlarida gapirayotgan personajlarning tili faqat shu personajga xosligi bilan xarakterlanadi. Bunday o'ziga xoslik uning gapirish ohangida, hatti-harakatlarida, qiliqlarida ham aks etadi. Bu hatti-harakatlar muallif bayonida, personajlarning gaplarida leksik frazeologik birliklar orqali, ma'lum bir stilistik funktsiyalarni olmasdan, ularni asliyatdagi birliklar ta'siriga berilib, g'ayritabiiy sharoitlarda qo'llash, tarjima tili madaniyati hazm qilaolmaydigan birliklar hosil bo'lib qolishiga, ba'zan esa ma'no va funktsiyaning mutlaqo o'zgacha talqiniga olib kelishi mumkin.

---

<sup>1</sup> А.В.Федоров. Язык и стиль художественного произведения. М., ГИХЛ. 1963.

<sup>2</sup> Ғ.Саломов. Таржима назарияси асослари. Тошкент, 1983.

Tarjima jarayonida ikki til birliklarining tarjimaviy, lug'aviy uyg'unligi emas, balki matndagi funktsional, kommunikativ mosligi muhimdir. Agar bu funktsionallik va kommunikativlikka e'tibor berilmay tarjimon tomonidan asliyatdagi birlikning lug'aviy ma'nosi berilsa, tarjima tilida so'z ifodalagan stilistik va kommunikativ ma'no buziladi. Jumla o'zbek tili adabiy til normalariga mos kelmay g'aliz va to'mtoq, fikr yakunlanmaganday jaranglaydi.

Asliyatdagi so'z va iboralarni umumxalq adabiy tilida qabul qilinmagan so'zlar bilan o'g'irish tarjima tilini kambag'allashtirishga, badiiy ifodadorlik darajasiga salbiy ta'sir qiladi. Quyidagi jumlar tarjimasiga e'tibor beraylik:

*...the two leather cartridge-boxes on the front of the belts, grey leather boxes heavy*

*with the packs of clips of thin, long 6,5 mm cartridge, bulged forward under the capes*

*so that the men, passing on the road, marched as though they were six months gone with child.*

*...две кожаные патронные сумки на поясе, серые кожаные сумки, тяжелые от обоем с тонкими 6,5 миллиметровыми патронами, торчали с переды под плащами так, что казалось, будто солдаты идущие по дороге, беременны на шестой месяце. (с. 9-10).*

*...qayishlaridagi ikkita kulrang charm patron sumka 6,5 millimetrli ingichka patronlar joylashgan oboymalardan zil tortib yomg'irpo'sh tagidan ko'tarilib turar va go'yo yo'ldan borayotgan soldatlarni olti oylik homilador qilib ko'rsatardi. (94 b.)*

Bu jumladagi «пояс» so'zi «qayish» so'zi bilan o'g'irilishiga e'tibor beraylik. O'zbekcha «qayish» so'zi shevada «kamar» ma'nosini anglatga-da, u shuningdek ko'proq «mahkam, mustahkam, egiluvchan» ma'nolariga ham ega. Belga taqib yurish ma'nosida esa u «kamar» so'zi bilan ifodalanadi va bu adabiy til normasi sifatida qabul qilingan. Chunki kontekst anglatgan ma'no bu bilan yanada ifodalibroq jaranglaydi.

Quyidagi jumlada ishlatilgan birinchi jahon urishi davriga xos “troops” so'zi o'zbek tiliga qilingan tarjimasida ham o'rta asr ruhini saqlab qolgan, zero hozirgi ingliz tilida ushbu so'zning zamonaviy shakli bo'lmish “army” so'zi mavjud, o'zbek tilida ham rus tili orqali kirib kelgan “armiya” so'zi ishlatilmasdan o'sha davr ruhini saqlovchi “qo'shin” so'zi tildagi davriy me'yyorni saqlagan. Shuningdek bu jumla tarjimasida inglizcha “the house”, ruscha «домик»,

o'zbekcha «кулба» so'zlarining funktsional mosligiga e'tibor beraylik. O'zbeklar naridan beri qurilgan g'aribona boshpanani "kulba" deyishadi. Asliyatda ham, rus tilida ham gap "kichik uycha" holiday uchrayaptiki, tarjimon uni "kulba"ga aylantirib, muallif niyatiga putur yetkazgan. Qolaversa askarlar oyog'idan kuchli shamol oqibatida ko'tariladigan "to'zon" emas, oddiy chang-g'ubor ko'tarilayotgani va ular daraxtlarning barglariga o'tirib qolayotganligi haqida gap ketayapti:

*"Troops went by the house and down the road and the dust they raised powdered the leaves of the trees".(p.3)*

*«По дороге мимо домика прошли войска, и пыл, которую они поднимали, садились на листья деревьев» (с.9).*

*«Kulba oldidagi yo'ldan qo'shinlar o'tib borar, ularning oyog'idan ko'tarilgan to'zon og'ochlarning barglariga o'tirardi» (91 b.).*

Ayrim hollarda asliyatdagi birikmani sof lugaviy ma'noda o'girilishi ham jumla ifodadorligini buzib qo'yadi:

*"The priest was young and blushed easily and wore a uniform like the rest of us but with a cross in dark red velvet above the left breast pocket of his grey tunic"(p. 8)*

*«Священник был молод и легко краснел и носил такую же форму, как все мы, только с крестом из темно-красного бархата левым нагрудным карманом серого френча» (с. 11)*

*«Kashish yosh edi va sal narsaga darrov qizarib ketardi, u hammamiz qatori forma kiygan, faqat kulrang frenchining so'l ko'krak cho'ntagi ustida to'q qizil duxobadan salb qadalgan edi» (94 b.).*

Bu jumlaning o'qigan ko'pchilik kitobxonlar ruxoniylar ko'kraklariga xoh taqib yurishlari haqidagi fikrni uqib olmasliklari tayin. Qolaversa «священник» so'zini «kashish» emas, bundan oldingi matndagidek «ruhoni» so'zi bilan o'giraverish, forma so'zini «harbiy kiyim» deb konkretlashtirish maqsadga muvofiq bo'lardi. Chunki «ruhoni» so'zi «kashish» soz'iga nisbatan ancha tushunarli va keng ommalashgan. Ba'zan hech qanday ekvivalent tanlashga muhtoj bo'lmagan, hamda tarjima qilinganda ham lug'aviy leksik muqobillari orqali o'girish mumkin va lozim bo'lgan birliklarni har xil tasodifiy birliklar vositasi orqali nutqning madaniy va tabiiy ohangini yo'qqa chiqarish hollari ham uchray turadi. Tarjimada funktsional mos muqobil bo'lsada, keng xalq ommasiga tushunarli bo'lmagan so'zni ishlatish hollari ham kuzatiladi:

*“Miss Barkley was quite tall” (p.13).*

*«Мисс Беркли была довольно высокого роста» (с. 19).*

*«Miss Berkli sanamrastadek qiz edi» (105 б.)*

O'zbek adabiy tilida «ancha barvasta qomatli» yoki «novchadan kelgan» iboralari mavjud bo'lgani va u asliyatdagi “quite tall” iborasiga juda mos bo'lgani holda tarjimon negadir ko'pchilikka notanish bo'lgan «sanamrasta» so'zini ishlatgani kitobxonga bir oz tushunarsizlik olib keladigandek. Bunday holatni quyidagi jumla tarjimasida ham ko'rishimiz mumkin:

*“We sat down on a bench and I looked at her” (p. 14).*

*«Мы сели на скамейку, и я посмотрел на нее» (с. 16).*

*«Biz eshakka o'tirdik va men unga qaradim» (105 б.).*

Bu o'rinda asliyatdagi “a bench” so'zi ruscha «скамейка» hech qanday stilistik vazifa bajarmayapti. Uni tarjimon oddiygina qilib «o'rindiq», «o'tirgich» so'zlari bilan o'g'irganda xalq jonli tilida ishlatiladigan «eshak» so'zini ishlatmaganda ham bo'lardi. Chunki o'zbek og'zaki tilida “o'rindiq” (a bench) so'zining ko'chma ma'noda ishlatilgan “eshak” tarzida ishlatilish shakli ham mavjud, lekin “a bench” so'zining ingliz tilida ko'chma ma'noli so'z bilan ifodalanganini biz ko'rmayapmiz. Balki voqealar shahardan chetta sodir bo'lganligi va balki tarjimon qaxramonlarning oddiy qishloqdan chiqqanligiga e'tiborni qaratmoqchidir.

Quyidagi parchada katta kishiga nisbatan “baby” so'zining ishlatilishiga e'tiborni qaratsak. Bizga ma'lumki ingliz tilida *baby* so'zi kichik bola, shaqaloqqa nisbatan ishlatiladi. Ko'chma ma'noda esa muloyimlik va iltifotlilikni ifodalaydi. Asarda esa muallif yarador, najotsiz bemorga nisbatan muloyim munosabatda bo'lish kerakligiga e'tibor qaratmoqda. Ya'ni o'sha bemorlar xuddi bolalardek g'amxo'rlikka juda muhtojligini, g'amxo'rtalab ekanligini kitobxon ongiga yetkazmoqchidek go'yo. Shunki bilamizki kasalxonaga tushgan har qanday bemor najot bilan shifokorlarga ko'z tikadi, ertaroq sog'ayib ketishlaridan umidvor bo'ladilar. Bolalar yaxshi muomalaning shaydosi bo'lganidek, bemorlar ham vrach va hamshiralarning xushmuomalaligiga juda muhtoj bo'ladilar. Afsuski ushbu holat tarjimada saqlanmagan. Baby so'zini tarjima qilmasdan transliteratsiya usuli bilan “bebi” shaklida ifodalagan xolos. Bu esa kitobxonda tushunmovchilik uyg'otadi:

*... poor dear baby, how do you feel? (p.78).*

*Sho'rlik bebi, kayfiyatingiz durustmi o'zi. (148 c.)*

Ushbu asardagi Italiyalik kapitanning ingliz tilini buzib gapirishi va bu nutqning rus va o'zbek tillariga xorijiy kishi nutqiga xos nuqsonlar bilan o'girilishi ham pragmatic uyg'unlikni vujudga keltirgan:

*Priest no with a girl. Priest never with a girl.*

*Священник с девочкой нет. Священник с девочкой никогда*

*- Рухоний ойимчага йўқ. Рухоний ойимча билан ҳеч қачон.*

Adabiy til me'yorini buzib so'zlashuvchilarning hammasini ham mahalliy lahchalarda gapiradi deb bo'lmaydi. Ayrim shaxslar nutqida muayyan mahalliy lahchaga moyillik sezilmasada, ular o'z nutqi lug'at tarkibida nofaol ayrim so'zlarni buzib talaffuz etadilar. Bu ko'proq fikr doirasi endi kengayib, nutqi rivojlanib kelayotgan yosh bolalar, hayotlarida bu xil so'zlardan kam foydalangan yoki mazkur so'zlarning tili lug'at tarkibiga keyinroq kirib kelganligi tufayli ularni yaxshi o'zlashtirib ololmagan qariyalar, savodsiz yoki chalasavod shaxslar nutqida tez-tez uchrab turadi. Binobarin, badiiy asar qaxramonlari nutqida ham bu xil noadabiy unsurlarning uchrab turishi tabiiy hol bo'lib, yozuvchilar ularni o'z qaxramonlari nutqiga kiritish yo'li bilan kitobxonlar e'tiborini bayon etilayotgan fikrning mazmunidan ko'ra ko'proq usuliga, shakliga tortadi va shu yo'l bilan o'z qaxramonlarini atroflicha tasvirlaydiki, tarjimada ularning muvofiq lisoniy vositalar yordamida talqin etilishi so'zsiz pragmatic uyg'unlikni yuzaga keltiradi.

Asarni o'qir ekanmiz minglab bunday misollarni keltirishimiz mumkin, zero asar shunchalik san'tkorona tarzda yozilganki go'yo uning har bir so'zi bir ta'sirchanlikka egadek. Shu o'rinda yana bir narsani aytmog'imiz lozimki, bundayin jahon durdonasini o'zbek kitobxonlariga yetkazib berayotgan mohir tarjimonlarimizga ham tasanno aytmalikning iloji yo'q albat.

Xulosa qilib aytganda, badiiy uslubning o'ziga xos xususiyatlari va me'yordan chetdan chiqmaslik hamda ma'noning asliymonand talqin etilishi ko'p jihatdan uning tarkibidagi obrazli hamda his-hayajon ifodasi uchun qo'llanilgan lisoniy vositalarning ijodiy talqin etilishiga bog'liqdir. Bunday tarjima tarjimondan ko'pincha asliyat tili vositalarini moddiy jihatdan aniq aks ettirishni emas, balki mazkur vositalar yordamida ifoda etilgan uslubiy vazifalarni, his-hayajon ohangini ona tili birliklari vositasida qayta yaratishni talab qiladi.

Til birliklarining adabiy shaklda me'yorlashuvida badiiy adabiyot va badiiy tarjimaning o'rni ham alohida ekan. Badiiy ijod jarayonida shoir va yozuvchilar o'z fikr va hissiyotlarini boshqa ijodkorlardan farq qiladigan, favqulodda asl ifodalarda berishga intiladilar. Bu yo'lda ular yangi so'z va iboralar yaratadilar. Yaratilgan

birliklar o'sha matrmning o'zida qolib ketaverishi, ommalashmasligi, adabiy tildan o'rin olmasligi, bir so'z bilan aytganda, tilda me'yorlashmasligi mumkin. Ularning me'yorlashishini sharoit, vaqt va ommaning qabul qilishi kabi omillar belgilaydi. Ammo bir narsa ravshanki, bu birliklar o'zi qo'llangan matnda badiiyat uchun, obrazli tasvir va ifoda uchun xizmat qiladi. Shunday ekan ularni bir uslub doirasida me'yoriy deb hisoblashga asosimiz bo'ladi.

Bayon qilingan fikrlarni xulosalab aytish mumkinki, nutq madaniyati adabiy til normalari sifatida qaraladigan barcha holatlardan san'atkorona va o'rinli foydalanishni talab qilar ekan, uning ajralmas qismi hisoblanadigan madaniyati ham barcha leksik-stilistik vositalarning asliyatdagi darajada tabiiy va jozibador jaranglashini taqoza qiladi. Bu ma'suliyat tarjimonga quyidagi talablarga javob berish ma'suliyatini yuklaydi: 1) Tarjima jarayonida ikki til birliklarining lug'viy birliklariga yopishib olmasdan, ularning leksik, semantic, stilistik, kommunikativ, funksional kontekstual ma'no-mazmunlariga e'tibor berish. 2) Birliklarning so'zma-so'z o'girilishi tarjima tilida ularning tabiiy jaranglashiga olib kelmaydi, zarur mazmun va emotsional-estetik ta'siri kamayadi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Abdullaev G'. "O'zbek milliy adabiy tili va uni o'rganishga oid ayrim masalalar",

«Nutq madaniyatiga oid masalalar» to'plami. - Toshkent: Fan.1973. 153 bet.

2. Мусаев Қ. «Бадий таржима ва нутқ маданияти» Тошкент 1976, 11 б.

3. Ernest Hemingway .“A Farewell to Arms”. Moscow , 1976. p.347

4. Хемингуэй Э. «Прощай оружие», «Узбекистан», Ташкент, 1989. ст. 366.

5. Хемингуэй Э. «Алвидо курул». Тошкент, 1986. 387 bet.

6. Galperin I.R. “Stylistics”. Moscow. 1971. p.328

7. Бобохонова Л.Т. “Инглиз тили стилистикаси” Тош. Ўқитувчи. 1995. 142 бет.

8. А.В.Федоров. Язык и стиль художественного произведения. М., ГИХЛ. 1963.

9. Саломов Ғ. Таржима назарияси асослари. Тошкент, 1983.